

## ОТА ОНА VA FARZAND TARBIYASI ORASIDAGI MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Psixologiya kafedrasida*  
*O'qituvchisi; Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna*  
*Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi*  
*2-bosqich talabasi; Rajabova Zohida*

**Annotatsiya;** Maqolada ota ona va farzand tarbiyasidagi turli xil o'zgarishlar ular orasidagi munosabatlar ularning yechimi va uning psixokorreksiyasi. I. Selevanovning oilada shaxsni shakillantirish jarayonini o'rganish haqidagi fikri. Mamlakatimizda oilaga bo'lgan e'tibor doim diqqat markazida bo'lib kelgan. Oila mustahkamligi oilaviy baxt tushunchasi bo'lib, u asrlar osha avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimizning ajralmas bo'lagi va eng asosiy tarkibiy qismidir. Ota onalik oliy baxt va shu bilan birga ulkan mas'uliyat hamdir. Farzandni aziz ne'mat sifatida qabul qilib unga chiroyli tarbiya berish o'ziga yarasha bilim va qunt talab qiladi. Har bir oilada past balandliklar bo'ladi. Ularni yengib o'tishda bir birini tushunish juda muhim. Farzand tarbiyasida ha o'zaro tushunish, fikr almashish, fikrini hurmat qilish ahamiyati katta. Ko'p oilalarda ota oilani boqish uchun asosiy vaqtini ko'chada o'tkazadi, shu sabab ko'p vaqt ajratolmaydi. Shunday bo'lsa ham ota ayolini kerak vaqtda qo'llab quvvatlay olishi, yordam berishi kerak. Farzand tarbiyasida hammasini onaga yuklash to'g'ri ish emas. Chunki farzandlar onadan, otadan tarbiyani turlicha qabul qilishadi. Ota onaning tarbiyada alohida o'rni bor,

**Kalit so'zlar:** Psixokorreksiya, Ijtimoiylashuv, Majburiyat, Muloqot, Reproaktiv funktsiya, Ijtimoiy faollik, Nizo, Mas'uliyat.

Oila o'ziga xos ijtimoiy psixologik birlik bo'lib uning asosida er xotin ittifoqi, qarindoshlik munosabatlari, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy mas'uliyat hamda jamiyat tomonidan o'rnatilgan ota onalarning bolalarini tarbiyalashi bo'yicha va farzandlarining o'z ota onalari uchun muayyan majburiyatlari turadi. Oilaning hissiy emotsional muloqot funktsiyasi o'zi va oila azolari o'rtasidagi muayyan iliq munosabatlarni saqlash, ular o'rtasida mehr oqibat, o'zaro g'amhorlik, bir birini qo'llab quvvatlash, sevish sevilish kabi qobiliyatini namoyon etishdir. Oilaning tarbiyaviy funktsiyasi madaniy, ma'naviy merosini avloddan alodga yetkazish, yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Jismoniy quvvatni ta'minlash funktsiyasi oila a'zolarining jismonan sog' tetik va o'zini yaxshi his qilishlarini taminlashga bog'liq bo'lgan sharoitlarni nazarda tutadi. Ma'naviy muloqotni ta'minlashlari yaxlit namoyon bo'ladigan bosqich.

Hayotimiz ota onalar va farzandlar o'rtasida turli ziddiyatlar va tortishuvlarning guvohi bo'lamiz. Kopchiligimizga bu oddiy holdek tuyuladi. Ammo bunday kichik tortishuvlar borib borib katta nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Oiladagi nizolarning oldini olish va bartaraf etish yo'li sifatida eng avvalo oilaviy munosabatlarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Oila va farzand tarbiyasi va oilaviy munosabatlar to'g'risida ko'plab buyuk allomalarimiz o'z fikrlarini bildirib o'tishgan farzand tarbiyasida otaning ham onaning ham o'rni katta bo'lib agarda biror

tarafning mas'uliyatsizligi bola tarbiyasida og'ishlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aniqrog'i o'smir yoshidagi bolalar ota onasi bilan tez tez ziddiyatiga borishi va ulardan norozi kayfiyatda yurishi kuzatiladi. Bunday vaziyatlarida ota ona iloji boricha farzandi bilan ochiq va samimiy munosabatlarni yo'lga qo'yishi ko'plab muammolarning yechimi deyishimiz ham mumkin.

Bunda farzand ham ota ona ham o'zini bosib avval o'zaro muloqotga kirishishi lozim, Ota ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yilmasligini farzandning ota onasini aldashiga, ulardan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin. Ular o'rtasidagi munosabatlarning iliq va samimiyligini farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, aks holda farzand o'sha davrda ota onasidan uzoqlashib ketishi mumkin bo'ladi shuning uchun farzand bilan samimiy suhbat qurish lozim. Ota ona va farzand orasidagi nizolarning aksariyati ularning xohishlariga istaklariga mos tushmasligidan kelib chiqishi mumkin bo'ladi. Ota onaning bola bilan ko'proq suhbat qurishi, fikr almashinishi, uni tinglashi ular o'rtasida ko'pgina nizolarning kelib chiqishini oldini oladi.

Psixolog olim I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib bahtli bolalik bu oilaning quvonchini hamjihatligini hamda ota onalarning bolalariga g'amho'rlikning samarasidir degan hulosaga keladi. Oiladagi munosabatlarning buzilishi, bolaning psixologik rivojlanishiga oz ta'sirini o'tkazadi. G'arb mamlakatlarida o'tkazilayotga tadqiqotlar ko'pchilik ayollarda onalik ustanovkasini yo'qligi, oilaviy munosabatlarning buzilishiga bola tarbiyasining o'qishiga va ajrimlariga sabab sifatida ko'rsatilgan. Ota ona farzandini yaxshi tarbiyalash uchun avvalo o'zlarini tarbiyalashlari lozim. Bolaning sog'lom oila muhitida ulg'ayishi va munosabatlardagi erkinlik uning kelajakda jamiyatimizga tezroq ijtimoiylashuviga va yaxshi moslashishiga yordam beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki oilaviy sog'lom muhitini shakllantirish iliq munosabatlarni yaratishda ayol kishining o'rni kata hisoblanad. Ushbu hulosalarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqsak eng avvalo ota ona farzandlari bilan doimo samimiy va ochiq munosabatni shakllantirishi lozim. Farzandlari bilan doimiy muloqot olib borishi va hamfikr bo'lishi ota ona farzand o'rtasidagi tushunmovchiliklarning yuzaga kelishining oldini oladi.

Tabiat qo'yniga tez tez oilaviy sayohatlarning tashkil qilinishi oilaviy salomatlikni saqlash va munosabatlarning yaqinlashishiga olib keladi. Oila a'zolari bilan birga bir dasturhonda yig'ilishi oilaviy birdamlikni va hamjihatlik ruhini shakllantiradi. Oilada bolaning fikri va qiziqishlaridan tinglash va maslahatgo'y bo'lish bolada ota onaga nisbatan norozi kayfiyatning paydo bo'lishini oldini oladi. Bolaning vaqtini to'g'ri taqsimlash va kitobga oshno qilish bolada dunyoqarashini o'stiradi. Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi xususan bolaga iroda, odatlar, fe'l atvor, xulq atrofiga munosabat e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Shu bois turmushda insonni kamol toptirish imkoniyatini ta'sir ko'rsatish imkoniyatini izchil o'rganmay turib shaxsning hususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Ma'lumki oila ijtimoiy tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishi ijtimoiy guruhning ko'rinishi qarindosh urug'chilik, nikoh turmush sharoiti birligi, odob axloq umumiyligi ma'naviy ehtiyoj mosligi kabi aloqalar o'zaro bog'liq bo'ladi.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib biologik ijtimoiy jihatdan axloqiy, mafkuraviy va ruhiy bo'lib munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolarini munosabatlardagi o'zgarishlar uning moddiy maishiy iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini tadqiq qilgan Vengriyalik sotsiolog M.Komloshi 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarini o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatlariga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti omillarini 4 guruhga ajratgan

1. Ota onalarning jamoatchilik faoliyati .
2. Oila ichidagi munosabatlar.
3. Ota onalarning tarbiyaviy pedagogik faoliyati
4. Oilada o'quvchining faoliyati.

Selivanov oilalarni yo'nalishiga qarab uch toifaga mansub ekanini ko'rsatish usullarini ustuvor bo'lishini ham ta'kidlaydi.

Rus psixologi Andrenkova esa ijtimoiylashuv jarayonini 2 katta bosqichga ajratgan.

Individning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'shlig'idir. U bolalikni o'z ichiga olib u inson hayotining qariyb 3 dan 1 qismini tashkil etadi. Bu davrda asosan bolaning dastlabki ilk sotsializatsiyasi ya'ni bolalik davri boladi. Normativ xulqning o'zlashtirish davri bu o'smirlik davriga to'g'ri keladi. O'spirinlikdan balog'at yoshiga o'tish davrini o'z ichiga oladigan ijtimoiylashuv oqibati funksiyasi odamning o'zi nasl nasabi ma'naviy madaniy an'analari bo'lishiga intilishdan kelib chiqadi.

Reproduktiv funktsiya bu oilaning nafaqat avlodlar vorislarning yaratishga aloqador vazifasi shu orqali ota va ona bo'lishdek bahtga muyassar bo'lish davlatning esa tub aholi sonini muayyan miqdirda ushlab turishga ham xizmat qiladi. Ijtimoiy tarbiyaning asl ma'nosi ham vazifasi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdir. Odatda oilada ijtimoiy faollikni oshirish bola irodasini chiniqtirish orqali amalga oshadi. Chunki ko'pincha ota onalar bolalarining aqlli farosatli bo'lib yetishlariga e'tibor berib uning ruhiyatini hamda jismoniy quvvatini oshirishga irodasini mustahkamlashga beetibor bo'ladi. Buning oqibatida bola turmush so'qmoqlarida tez qoqiladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yenga olmaydigan, ruhiyati mo'rt bo'lib qoladi. Shuning uchun ham oilaviy ijtimoiylashuvdan bolaning ijtimoiy bilimdonligi, ijtimoiy ko'nikmalari va ularni oshirishga qaratilgan chora tadbirlarga alohida urg'u beriladi.

Mutaxassislar oilaviy sotsiolizatsiyaning boqichlari funksiyalarini tafovutlash bilan birgalikda uning har birida o'ziga xos ijtimoiylashuv berishini takidlab o'tishgan. Sibling maqomi tushunchasi bu ota ona va farzand munosabatlaridan tashqari keying o'rinda aka uka va opa singillik munosabatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Oilada farzandlar o'rtasida iliq munosabatlar bo'lishi ularning saqlanib qolishi oiladagi farzandlar mavqeyiga munosabat bildirish kerak. Oila bolada ilk ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan maskani bo'lib unda bolaning ota onasi, aka ukasi, opa singlisi bilan bo'ladigan muloqotlari kuchli ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi, bunga ko'pgina tadqiqotchilar ham shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, ota onalik maqomlariga, ularning do'stlar bilan munosabatlariga ta'sir etishini o'rganishgan.

## XULOSA

Ota ona va farzand tarbiyasidaga munosabatlarni yaxshilash oila bu jamiyatimizning bir bo'lagi ekanini tushuntirish. Oilada vatanparvarlik insonparvarlik, hissi va insoniy hisslarni shakllanishi. Ularda mehr muhabbat, insoniylik, oilaparvarlik, ota onaga farzandga g'amxo'rlikni namoyon qilish. Shuningdek, ota onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlariga ega bo'lishlari zarur va ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ham ota onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatish desak ayni maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolaga nisbatan katta maqsadni qo'ymaylik. To'g'ri maksimalizm kerak bola unga intilishi zarur. Lekin buni bosqichma bosqich o'tkazish lozim. Mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi qolgan 3 foizi esa yolg'iz qolgan keksalar, ota onasidan yetim qolganlar va boshqa yurtdan kelib vaqtinchalik O'zbekistonda istiqomat qilayotganlar. Shu ma'noda aytib o'tish joizki inson o'z baxti va saodati, orzu havaslari maqsad muddaolarini mushtarak qilgan o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Jalilova.S.X, G'ayibayeva.N.A Umumiy Psixodiagnostika T-2017
2. G'ayibova,N,A O'smir sibling maqomining tengqurlari bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlarga tasiri T-2016
3. G'ayibova.N.A Oilada farzandlar o'zaro munosabatlarini o'rganish metodik qo'llanma T-2014
4. Shoumarov.G'.B, Sog'inov.N.A O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari ilmiy ishlar to'plami.
5. Imomqulova.F Oiladagi tarbiya usullarini bolaning muvaffaqiyatiga erishishiga ta'siri 2021.
6. Ibadullayeva.U.R Ota ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya bo'yicha falsafa doktori diss. T-2022
7. Salayeva.M.S O'zbek oilalarida ota ona farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya fani nomzodi diss T-2005.